

MUSTAQILLIK DAVRI TURKMAN BOLALAR ADABIYOTI LINGVOPOETIKASI

Z. Sh. Ashurova, Ph.D

*“Ozbek tili va adaviyoti” kafedrası katta o’qituvchisi, filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

Ivanova Kristina Konstantinovna

“Ozbek tili va adaviyoti” kafedrası katta o’qituvchisi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, lingvopoetik tahlil, badiiy matn, zamonaviy bolalar adabiyoti, til birliklari, poetik nutq.

Annotasiya

Maqolada lingvopoetika xususida fikr yuritilgan bo'lib, rus tilshunosligida va bir qancha darsliklarning talqini keltirib o'tilgan. Lingvopoetik tahlil usuli atroflicha yoritib o'tilgan. XX asr turkman bolalar adabiyotidagi o'zgarishlar, turkman ertaklarining o'ziga xos ko'rinishlari haqida batafsil misollar orqali boyitilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Ma'lumki, globallashuv va integratsiyalashuv jarayonida ilm-fan oldiga misli ko'rilmagan darajada dolzarb masalalarni qo'ydi. Endilikda badiiy matnni har tomonlama chuqur tadqiq qilish, undagi lingvistik, stilistik va semantik qirralarini o'rganish jarayoni tusini oldi. Badiiy matndagi lingvistik elementlari muhokama qilish negizida undagi qo'llanilgan metafora, maqol, so'z o'yini, masal, tashbeh singari shakl va mazmun bilan bog'liq muammolar jahon tilshunos olimlarining oldiga qator vazifalarni bajarishga keng yo'l ochdi. Avvalo lingvopoetika nima? –degan savolga javob berish lozim. Bu soha badiiy matnni til sathlari negizida tadqiq qilishni masalaning bir qirrasini qamrab olishi tabiiy. Negaki, tilning benihoya keng imkoniyatlarini ishga solib, undagi leksik birliklar bo'ladimi, grammatik birliklar bo'ladimi, grammatik birlilar bo'ladimi barchasini qamrab olish nazarda tutiladi. Tilshunos olim I.A. Shmul shunday yozadi: “Lingvopoetika –bu filologiyaning bir sohasi bo'lib, unda badiiy matnning stilistik jihatdan belgilangan til birliklari va ularning vazifalari hamda muayyan g'oyaviy –badiiy mazmunni yetkazish va badiiy –estetik qirralarini aniqlash tushuniladi.”¹. Darqahiqat, lingvopoetikaning asosiy vazifalaridan biri shuki, badiiy matnning til birliklarini, umumiy va xususiy xususiyatlarini qamrab olish va ularni yanada takomillashtirishdan iborat.

Lingvopoetik tahlil usuli shundan iboratki, badiiy matndagi ijodkorning individual uslubiga xos qirralarini kashf etish bilan birgalikda so'z va gap ma'nolarining o'zaro yaxlitligi, birikuvini tadqiq qilishni nazarda tutadi. Rus tilshunosi Ye.B.Borisova qayd etishicha: “Keyingi paytlarda filologiya sohasi vakillari badiiy matnni tahlil qilish bilan bog'liq masalalarga qiziqishi ortib bormoqda.

¹ Шмоль И.А. Лингвопоэтическая стратификация художественных текстов и изучение индивидуального авторского стиля: На материале произведений Шекспира. Автореф.кандидат фил.наук. –М. 2001. –С.3.

Lingvopoetik jihatidan tadqiq qilishga intilish borasida maqola, monografiya va yirik-yirik darsliklar fikrimiz yorqin dalilidir. Shunday bo'lsa-da, mazkur tadqiqotlar tipologik, semiotik, lingvopragmatik stilistik akspektda tadqiq qilinish masala mohiyatini oydinlashtiradi. Bugungi kunda badiiy matnning mohiyatini izohlamasdan turib, chuqur va keng qamrovli o'rganish mumkin emasligi barchaga ma'lum². Demak, badiiy matnning nozik va eng muhim qirralarni qayta idrok etish borasida ijodkor badiiy olamini har tomonlama chuqur dalolatlash imkonini beradi. Olima Ye.Borisova diqqatni qaratayotgan asosiy e'tibor shaxs individul xususiyatlarida aks ettirilgan badiiy matn tabiatida ma'nolar maydoni narsa va buyum nomlarining hamda o'xshatish va badiiy-tasvir vositalarini to'g'ri, asosli qayd etishga mantiqiy urg'u berilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, lingvopoetika masalalari jahon va rus tilshunosligida juda ko'plab qirralari o'rganilgan. Masalan, irland shoiri Ulyam Batler Yetsa she'riyatining lingvopoetik xususiyatlari tahliliga bag'ishlangan monografik tadqiqoti alohida tahsinga sazovordir³. Tadqiqotchi A.Aksenova ushbu dissertatsiyasida she'riy matn tahlili va muallif uslubining tadrijiy taraqqiyotini har tomonlama chuqur o'rganadi. Unda: "She'rdagi poetik nutqning o'ziga xosligi va badiiy-tasviriy vositalari Uyg'onish davri kalassitsizm namunalarini yodimizga soladi. Badiiy ijod jarayoni taqlid sifatida qabul qilindi va taqlid qilish usullariga qarab o'zaro farqlandi: a) ob'ektiv hikoya (doston), muallifning shaxsiy kechinmasi (she'r), voqealarni harakatda tasvirlash (drama) singari uchta turga bo'lib o'rganishni nazarda tutildi"⁴. Demak, tilshunos olimaning alohida qayd etishicha, irland she'riyatidagi uzil-kesil o'zgarishlar dinamikasi Antik yunon madaniyatiga borib taqalishi dalolatlanmoqda. Negaki, badiiy matndagi hissiy-emotsional til birliklari, leksemalar mohiyatida, ayniqsa, lirik she'rda kechinma tarzida ro'y berishi, u nafaqat o'quvchining ongu shuurini, balki muallifning ham ong ostida avvaldan mavjud fragmentlarni o'zgartirib yuborishga qodirdir.

Shuningdek, she'riy nutq sintaksisi va lingvopoetik talqin o'ziga xosligi borasida tadqiqot olib borgan tilshunoslardan biri N.P.Nebrosina qayd etishicha: "Lingvopoetik tahlil qilishda til birliklarining vositalarini ramziy-majoziy tushunish masalani tor doiraga olib chiqishi mumkin. Negaki, lingvopoetik tahlil qilish asnosida go'zallik va olijanoblikni targ'ib qilishga qaratilgan juda ko'plab tasviriy vositalar mavjud. Mana shularni gap, g'oya, shakl birliklari yaxlitligida ilmiy asoslash masala mohiyatini yanada oydinlashtiradi. Til poetikasi bilan badiiyat poetikasini uyg'un ravishda o'rganishda juda ko'plab muammolar mavjud. San'atni organik tarzda olib o'rganish tilshunolar, adabiyotshunolar, faylasuflar zimmasidagi asosiy vazifalar sirasiga kiradi"⁵. Binobarin, til belgilar tizimi ekan, lisoniy belgilarni va undagi ma'nolar yig'indisini, sintaktik, semantik, pragmatik jihatlarini e'tiborga olgan holda tadqiq etish badiiy matn tabiatidagi yoki til egasining o'zaro munosabatidagi nutqiy birliklar negizida tadqiq qilish ishonchni oqlaydi. Natijada yuqoridagi manbada gap va g'oya, shakl va mazmun birliklarida shoirning o'quvchiga nima demoqchi ekanligini, hissiy-emotsional va falsafiy-estetik tabiatini anglash birmuncha qulaylik tug'diradi.

Rus tilshunosi M.Stepanov qayd etishicha: "She'riy san'at va she'riy nutq ontologiyasini tushuntirib beradigan ilmiy nazariyani yaratish muammosi juda muhimdir. Negaki, har bir ijodkorning individual uslubi, so'z qo'llash mahorati, ularni anglatish prinsiplari turli-tuman bo'ladi. Shu ma'noda, she'riy nutq nima degan fikrlar mavjud. Bu savollarning barchasi tadqiqotchilar, olimlar, adabiyotshunolar, tilshunolar, faylasuflar va boshqalar tomonidan olib borilgan g'oyalarning umumiy ko'rinishidir. Biroq, ularning hech biri she'riy nutqni mustaqil ob'ekt sifatida tadqiq qilmaydi. She'riyatning

² Борисова Е.Б. Художественный образ в английской литературе XX века: типология-лингвопоэтика-перевод. Филол.док. наук. Автореф. –М. 2010. –С.3

³ Аксенова А.В. Лингвопоэтический анализ стихотворных произведений У.Б.Етса: особенности эволюции индивидуально авторской манеры. Дисс.автореф. кандидат фил.наук. –М. 2013. –С. 21.

⁴ Аксенова А.В. Лингвопоэтический анализ стихотворных произведений У.Б.Етса: особенности эволюции индивидуально авторской манеры. Дисс.автореф. кандидат фил.наук. –М. 2013. –С.6

⁵ Небросина Н.П. Синтаксис стихотворной речи как предмет лингвопоэтического исследования: На материалы англ. и амер. поэзии. XVI-XX века. Автореф док.филол. наук. –М. 1997. –С. 11.

mavjudligi va she'riy nutq haqida maxsus bir qaror qabul qilishgan bo'lsa-da, she'riy nutqni har bir ijodkor izlanishlari fonida tekshirganda ob'ekt sifatida alohida ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir"⁶.

Lingvopoetik talqin nazariyasi borasida shuni qayd etish joizki, tasvirlanayotgan narsa va hodisalar bevosita shoir tasavvuri, tafakkuri, dunyoqarashi, falsafiy-estetik olamidagi o'zgarishlar, o'sishlar, ba'zan inqirozlar negizida namoyon bo'ladi. Bu jihatdan olib qaraganimizda, shoir "men"i hamisha o'zigagina tegishli his-tuyg'ularni idrok qiladi. Rus tilshunoslaridan yana biri bu borada aniq chegarani ko'rsatishga harakat qilgan. Masalan, Ye.V.Plaxina e'tiroficha: "Obraz" va "obrazlilik" atamalarining lingvistik aloqasi turli sohalar bilan bog'liq. Leksikologiya – "so'z ma'no"si haqidagi ta'limot bo'lsa, lingvistika va lingvopoetika "tilshunoslik va badiiy san'at qorishuvidagi" sohalaridan biridir. Obrazlilik – she'riy nutqning asosini tashkil etadi. Muhim jihati shundaki, joriy kunda she'riy nutq poetikasini tushunish uchun – metafora (o'xshatish) kalit vazifasini o'taydi. Metaforik konstruktsiya obrazlilikning bilvosita ta'siri, asosan, lirik she'riyatda namoyon bo'ladi. Obrazlilikni yaratishda asosan metaforik birliklar (epitet)ning ahamiyati muhim rol o'ynaydi. She'riy nutqning o'ziga xos xususiyati ham ana shu jihatlari bilan ahamiyatlidir"⁷. Demak, lingvopoetik talqin o'ziga xosligini aniqlashtirishda birlamchi tamoyillardan biri she'riy nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladigan obrazlar galeriyasini to'g'ri belgilash lozim. Ayniqsa, bolalar she'riyatida mazkur konstruktsiya so'z va uning ifodalayotgan ma'nolari: maqol, ibora, o'xshatish, sinekdoxa, tasviriy ifodalarda qabarib ko'rinadi.

XX asr turkman bolalar adabiyotida o'zgarishlar davri bo'ldi. Boshqa xalqlarda bo'lgani kabi turkman etaklarining kundalik hayotida ham ilmiy yangiliklarga boy bo'ldi.

"Okasyn ballym meniñ,

Bu şirin dillim meniñ.

Okap mugallym bolsa,

Begener ballym meniñ"⁸

(O'qisin asalim mening,

Bu shirin tilim mening.

Agar o'qituvchi bo'lsangiz,

Baxtim asalim mening).

She'r sodda va mazmunan tushunarli tilda yozilgan bo'lib, bolaning ulg'ayishiga, xalq farzandi bo'lib yetishishiga undaydi. Turkiy bolalar adabiyotida ham o'zbek bolalar adabiyoti singari sodda ko'rinish orqali o'qish, undash, intilish kabi jihatlarni ulg'ayayotgan bola ongida gavdalanishini ko'rishimiz mumkin.

Mustaqillik va yangi uyg'onish davri bolalar adabiyoti misolida shoirlar she'rlari orqali tili, shakli, usullari odatdagidan ko'ra farqli bo'lgan holatlarni uchratishimiz mumkin:

Dur stoluñ üstünde

Ýuwulmaly gap-çanak:

⁶ Степанов М.М. Денотация и коннотация в поэтическом дискурсе: на материале произведений классической и современной испанской поэзии. Автореф кандидат фил.наук. –М.2007. –С.3.

⁷ Плахина Е.В. Лексико-семантическое поле "космос" в лирике В.А. Жуковского, А.С. Пушкина, М.Ю. Лермонтова. Автореф. Кандидат фил.наук. –М.2004. –С.9.

⁸ D.Aşyrowa, D.Rejebow, G.Kuýasowa, A.Agaýew, M.Agyşowa çagalar edebiyaty we labyzly okuwaşgabat "ylym" neşirýaty 2010 81 bet

1. okara,
2. saç,
3. sanam ak çäýnek.
4. stakan,
5. kepgir,
6. sany tabak bar.
7. sany tarelka,
8. sany ýabak bar.
9. sany käse bar,
10. sanagam çemçe bar.

Ýeke-ýeke ýuwaýsak.

Hemmesi näçe bor?⁹

(Kasym Nurbadowyň)

She'r faqatgina raqamlarga qiziqish emas, balki, mehnat tarbiyasiga ham e'tibor qaratilgan. Bunday holda bola raqamlarga emas, balki idishlarni toza saqlashni o'rganadi. Misralar orqali ulg'ayib kelayotgan bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash g'oyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shoirning yangi usul ifodaviylik kasb etgan bir qancha she'rlarini kuzatishimiz mumkin.

2 (iki)

$T+2+n$ $t+2+p$ oturdym,

Etmän hiç zady $p+2+r$.

Birden gülüp goýberdim,

$K+2+r$, $-k+2+r$, $k+2+r$.

3 “Üç”

Tam üstünde kepderiler

Otyr düýä münen ýaly:

$3+ek$ örk+3 olar $3+in$

Tamymyz hem iner ýaly.¹⁰

(Kasym Nurbadowyň)

Shoirning yuqoridagi keltirib o'tilgan she'rlari mustaqillik davri turkman bolalar adabiyotida o'ziga xos siljishlarga ega bo'ldi. Matematik she'r tuzilish ifodasi orqali bolada idrok qila olish, tushuncha hosil qilish kabi jihatlarni ochib berishda qo'l keladi.

⁹ D.Aşyrowa, D.Rejebow, G.Kyýasowa, A.Agaýew, M.Agyşowa çagalar edebiyaty we labyzly okuw Aşgabat “Ylym” neşirýaty 2010. 289 ber

¹⁰ D.Aşyrowa, D.Rejebow, G.Kyýasowa, A.Agaýew, M.Agyşowa çagalar edebiyaty we labyzly okuw Aşgabat “Ylym” neşirýaty 2010 289 ber

Adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ф. Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. –Т.: “Фан”, 1964
2. Мирзаев И. К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии). Диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. –Ташкент, 1992.
3. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси: Филол. фанлари д-ри. ...дис. – Тошкент, 2017.
4. Умирова С. Ўзбек шеъриясида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияси мисолида): Филол. фанлари д-ри дис. (PhD). – Самарқанд, 2018.
5. Ашурова, З. Ш. Лингвистическая поэзия поэта Анвар Обиджон / З. Ш. Ашурова // Актуальные научные исследования в современном мире. – 2018. – № 3-6(35). – С. 48-51.
6. Олкор дамин шеъриясида лингвопоэтика / Н. П. Имомов, З. Ш. Ашурова // Молодой исследователь: вызовы и перспективы: Сборник статей по материалам LXXII международной научно-практической конференции: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука", 2018. – Р. 574-579.
7. Ashurova, Z. (2021). THE ROLE OF THE SCHOOL IN THE PROCESS OF SOCIALIZATION OF STUDENTS. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(3).
8. Shodiyevna A. Z., Bekhruz U. The Study of Linguopoetics in Uzbek Linguistics. – 2022.
9. Ashurova, Z. (2021). LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF THE ARTISTIC TEXT AND INTERVIEW OF THE AUTHOR'S INDIVIDUAL STYLE. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 2(2).
10. Shodiyevna A. Z. RESEARCH OF LINGUOPOETIC PROBLEMS IN EUROPEAN AND RUSSIAN LINGUISTICS //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – С. 59-62.
11. Shodiyevna A. Z. PROBLEMS OF LINGUOPOETICS IN TURKIC AND UZBEK LINGUISTICS //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 23. – С. 521-524.
12. Ashurova Zulxumor LINGUOVOETIC CHARACTERISTICS OF THE ARTISTIC TEXT AND THE AUTHOR'S INTERPRETATION OF THE INDIVIDUAL STYLE // Архивариус. 2020. №8 (53).
13. Shodiyevna A. Z., Bekhruz U. The Study of Linguopoetics in Uzbek Linguistics. – 2022.